



Immigrantlar uchun jamoat tashkilotlariga yo'riqnoma



Mundarija

New York State



- Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilarning ota-onalari uchun ishonch liniyasi – Ushbu ishonch liniyasi MLLs/ELLs'ning ota-onalari, vasiylari va ota-ona o'rnidagi boshqa kishilarini Ta'lim komissari qarorining 154-bandiga ko'ra bolalarning huquqi va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar haqida ma'lumot berish uchun tashkil qilingan. Ushbu qaror bunday xizmatlar ko'rsatish haqidagi muayyan so'rovlarga javob berish mexanizmini ham tavsiflab beradi. Telefon raqami: (800) 469-8224 <https://steinhardt.nyu.edu/metrocenter/ellparenthotline>
- NYSITELL va NYSESLAT'ning ota-onalar uchun yo'riqnomasi – Ushbu yo'riqnoma ikki xil baholash haqida tushuncha beradi. Ularga ko'ra, ona tili yoki asosiy so'zlashuv tili ingliz tilidan boshqa bo'lgan o'quvchilarning ingliz tilini bilishi darajasi/malakasi baholanadi. Yo'riqnoma 22 ta tilga tarjima qilingan. <http://www.nysed.gov/bilingual-ed/nysitell-and-nyseslat-parent-guides>
- Ota-onalarga mo'ljallangan video: Nyu-Yoirk shtatida Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun dasturlardan 10 ta tilda bahram and bo'lish mumkin – Ushbu interfaol paneldagi animatsion videoda MLL / ELL'ning kimligini aniqlash va baholash jarayoni tavsiflanadi hamda dastruning turli foydalanish mumkin bo'lgan variantlari haqida hikoya qilinadi. Unda, shuningdek, "Ingliz tili yangi til sifatida" va turli "Ikki tilli ta'lim" dastur modellari o'rtasidagi farqlar haqida so'z yuritiladi. <http://www.nysed.gov/bilingual-ed/parent-orientation-video-english-language-learner-ell-programs-new-york-state>
"Video Narration" matni yana 9 ta qo'shimcha tilda ham mavjud <http://www.nysed.gov/bilingual-ed/parent-orientation-video-english-language-learner-ell-programs-new-york-state>
- Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun kollejga yo'l xaritasi – New York shtatidagi Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun kollejga kirish yo'riqnomasi. <http://www.nysed.gov/bilingual-ed/roadmap-college>
- Bundan tashqari, New York State Education Department tashkilotining har bir boshqarmasi ota-onalarni qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha resurslar yaratdi. Departamentning barcha boshqarmalari ro'yxatini ko'rish uchun quyidagiga kiring: <http://www.nysed.gov/about/program-offices>

Yaqinda immigratsiyaga oid o'tkazilgan tadbirlar bo'yicha qo'llanma

New York State Education Department (NYSED) tashkiloti barcha o'quvchilar o'qib -organishi uchun xavfsiz boshpana bo'lib qolishini ta'minlashga intiladi. NYSED New York State Office of

™ Ushbu xabarlar va tarjimalarning rasmiy nusxasini olish uchun qarang: <http://www.nysed.gov/bilingual-ed/information-regarding-recent-immigration-related-actions>.

New York State Governor's office'dan qo'llanma:

™ Gubernator Andrew M. Cuomo imzolagan 170-ma'muriy buyruqqa ko'ra, New York shtatining davlat muassasalari va amaldorlariga qonunchilikda talab qilinmagan yoxud nafaqa olish va yoki xizmatlardan foydalanish huquqini aniqlash uchun zarur bo'lmagan hollarda kishining immigrantlik maqomini bilish uchun so'rov berish yoki oshkor qilish taqiqlanadi. Bunga jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv ishlarini olib bormayotgan bo'lsa, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari ham kiradi. Ma'muriy buyruq bilan mana bu yerda tanishish mumkin: <https://www.governor.ny.gov/news/governor-cuomo-signs-executive-order-prohibiting-state-agencies-inquiring-about-immigration>.

Ushbu qo'llanmadan qanday foydalanish haqida ma'lumot

New York State Education Department bolaning faqat sinf xonasida emas, uylarda ham, jamoatlarda ham ta'lim olishiga qat'iy ishonadi. Ushbu katalogda [Hudson Valley hududidagi jamoat tashkilotlari ro'yxati](#) bor, ular immigrant nyu -yorkliklar uchun foydali bo'lgan turli -tuman xizmatlarni taklif etadi.

- ™ Katalogda tashkilotlar ro'yxati, manzillari, bog'lanish ma'lumotlari va taklif etayotgan xizmatlari tavsifi, o'sha xizmatlar ko'rsatilayotgan tillar haqida ma'lumot beriladi.
- ™ Tashkilotlar alifbo tartibida beriladi.
- ™ Ro'yxatda keltirilgan xizmatlarning aksariyati bepul. Biroq ayrimlari bepul emas. Siz har doim muayyan tashkilotning xizmatidan foydalanishdan oldin uning narxini kelishib olishingiz kerak.
- ™ Dasturlardan foydalanishni kafolatlash uchun tashkilotga oldindan qo'ng'iroq qilishingiz tavsiya etiladi.

Har bir tashkilot nomi yonida belgilangan ramzlar u qanaqa xizmatlar ko'rsatishini anglatadi.

Targ'ibot va jamoat ishlariga hissa
qo'shish
Sog'liqni saqlash va sug'urta
Turarjoy
Mehnat va bandlik

Yuridik xizmatlar va huquqiy
maqom
Davlat yordami
Xavfsizlik
Yoshlar va ta'lim

Tashkilot katalogi

1. Cabrini Immigrant Services (Dobbs Ferry, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha

121 Main St., Dobbs Ferry, NY 10522

Telefon: (914) 674 1937

<https://www.mothercabrini.org/what-we-do/outreach-to-immigrants/cabrini-immigrant-services-dobbs-ferry-ny/>

Ingliz tilini o'rgatish, immigratsiya masalalari; sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanish; ta'lim va ishga joylashish bo'yicha xizmatlar taklif etadi. Yana advokatlik xizmatlari, maktabdan so'ng uyga vazifalarni bajarish va turli

9. Immigration Justice Clinic at John Jay Legal Services, Inc. (White Plains, NY)
Tillar: Inglizcha, Gaiti kreolchasi

13. My Sisters' Place, Inc. (White Plains, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha, boshqa tillarga tarjima qilish uchun til liniyasini ishlatadi.

1 Water St., White Plains, NY 10601

Telefon: (914) 683-1333

<http://mspny.org/>

Yashash joyida xizmatlar, ko'maklashish xizmatlari, huquqiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim dastrurlarini amalga oshirish, advokatlik orqali oiladagi zo'ravonlik va odam savdosi jabrdiydalariga xizmat ko'rsatadi.

14. Newburgh Armory Unity Center (Newburgh, NY)

Tillar: Inglizcha va ispancha

321 South William Street, Newburgh, New York 12550

Telefon: (845) 2454035

<http://www.newburgharmory.org/>

Turli-tuman o'quv, sport va shaxsiy rivojlanish dastrularini boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi, ayni chog'da turli irqiy, etnik, diniy va iqtisodiy an'ana va sharoitlarga ega kishilarning fuqarolik birdamligiga ko'maklashadi.

15. New York Civil Liberties Union – Lower Hudson Valley Chapter (White Plains, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha

17.

21. Rockland Community Development Council (Monsey, NY)

Tillar: Inglizcha, ibroniycha, ispancha, idishcha

22 Main St., Monsey, NY 10952

Telefon: (845)352-1400

http://rocklandgov.com/departments/community_development/

24. Westchester Institute for Human Development (Valhalla, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha

20 Plaza West, Valhalla NY 10595

Telefon: (914) 4938150

<https://www.wihd.org/>

Butun Westchester okrugi va Hudson Valley'ning quyi qismida yashovchi shaxslar, ularning oilalari va parvarish qiluvchi kishilarga keng qamrovli tibbiy, klinik va ko'mak xizmatlarini tayyorlaydi va ko'rsatadi.

25. Young Rhinebeck (CultureConnect) (Rhinebeck, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha

P.O. Box 590, Rhinebeck, NY 12572

Telefon: (845) 3794725

<https://www.cultureconnectrbk.org/>

Yoshlarni ko'nikma, muloqot, xarakter va ishonchni tarbiyalovchi ta'lim va ijtimoiy dasturlarga jalb qiladi. Ushbu dasturlar repetitorlik, til ko'nikmalari, yozgi va maktabdan tashqari dasturlar, kolleжда o'qishga tayyorlash, kollejlarda o'qiyotgan talabalarning birinchi avlodiga ko'maklashish va boshqa imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

26. YWCA Orange County (Newburgh, NY)

Tillar: Inglizcha, ispancha

21 West St., Newburgh, NY 12550

Telefon: (845) 561-8050

<http://www.ywca-orangecty.org/>

Iqtisodiy huquqni kengaytirish, irqiy adolat, ayollar salomatligi, oilalarga ko'maklashish, ishga joylashishda yordam berish, amaliy seminarlar va immigratsiya xizmatlari dasturlari orqali Orange okrugidagi ayollarga xizmat ko'rsatadi.

Shtat bo'yicha resurslar

New York shtatining immigrant resurslari bo'yicha qo'llanmasi

<https://www.ny.gov/we-are-all-immigrants/new-york-state-immigrant-resource-guide>

New York shtatining immigrant resurslari bo'yicha qo'llanmasi til xizmatlaridan foydalanish, jinoyat va kamsitishga qarshi kurash, huquqiy xizmatlar, iste'molchilar huquqini himoya qilish, sog'liqni saqlashga oid xizmatlar, moliyaviy yordam va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishga oid xizmatlar ko'rsatadigan davlat muassasalarining keng qamrovli ro'yxatini taklif etadi.

2-1-1 New York

<https://211nys.org/>

Favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lmagan ma'lumotlar xizmatining 211 telefon raqamini tering, u sizni sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot xizmatlari bilan bog'laydi. Ko'plab tillarda javob beruvchi operatorlar xizmatidan foydalanish mumkin. Ularning ma'lumotlar bazasiga onlayn kirsa bo'ladi.

New York shtatining Boards of Cooperative Educational Services (BOCES) kengashlari

<https://www.boces.org/>

BOCES "Katta beshlik"dan (New York shahri Buffalo, Rochester, Yonkers va Syracuse) deyarli barcha maktab okruglarida umumiy foydalanish mumkin bo'lgan ta'lim dasturlari bilan ta'minlaydi va xizmatlar ko'rsatadi. Ayrim xizmatlarga o'rta maktab o'quvchilari uchun ish bilan bog'liq va texnik dasturlar, nogiron o'quvchilar uchun xizmatlar, yozgi maktab, kattalar uchun savodxonlik va kasb o'quv dasturlari kiradi. Yuqorida keltirilgan veb saytdan o'zingizga yaqin BOCES'ni toping.

New York State Division of Human Rights (DHR)

<https://dhr.ny.gov/>

DHR New York shtatining "Inson huquqi to'g'risida"gi qonuni amal qilishini ta'minlaydi. Unda yosh, irq, milliy kelib chiqish, jins, jinsiy moyillik, oilaviy ahvol, nogironlik, harbiy ahvoli yoki boshqa ko'rsatilgan toifalarga qarab ishga joylashish, turarjoy, kredit olish, ijtimoiy yashash joylari sohasida kamsitish taqiqlanadi. Kamsitish holatlariga oid shikoyatingizni DHR surishtirishi uchun ularning veb saytiga yuborishingiz yoki (888) 392-3644 telefon raqami orqali xabar qilishingiz mumkin.

New York State Office for New Americans (ONA)

<https://www.newamericans.ny.gov/>

ONA 27 ta mavzeda Imkoniyat markazlari ni yuritadi, u yerlarda huquqiy yordam, "English-for-Speakers-of-other-Languages" (ESOL) ("Boshqa tillarda so'zlashuvchilar uchun ingliz tili") saboqlari, fuqarolik olish uchun ko'maklashish, tadbirkorlikka oid treninglar va davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha amaliy seminarlar singari turli-

Dasturlar saytlari tarmog'i bo'lgan "Parent-Child Home" dasturi kam daromadli oilalarni ularning farzandlari maktab va hayotda ulkan salohiyatini ro'yobga chiqara olishi uchun zarur malaka va vositalar bilan ta'minlaydi. Ular New York shtati bo'ylab uylarga borish, ta'lim resurslarini tarqatish va o'quv tayyorgarligi bilan shug'ullanadigan 29 ta vebsaytni yuritadi.

Protecting Immigrant New Yorkers (PINY)

<https://protectingimmigrants.org/>

"Protecting Immigrant New Yorkers" ("Immigrant nyu- yorkliklarni himoya qilish") "New York Immigrant Coalition" tarkibiga kiruvchi ish guruhi bo'lib, davlat muassasalari bilan jamoat tashkilotlari o'rtasida immigratsiya bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlardagi qallobliklarga qarshi kurashni muvofiqlashtiradi. Ish guruhi eng yaxshi tajribalarni targ'ib qiladi, muloqotni rag'batlantiradi, qalloblarga qarshi huquqni qo'llash harakatlarini muvofiqlashtiradi, ijtimoiy boxabarlik va kampaniyalarga oid materiallar, "Huquqingizni bilib oling" degan flayerlar (reklama varaqalari), iste'molchilik sohasidagi qallobliklarga qarshi kurashishga qaratilgan tavsiyalar tayyorlaydi.

